

Yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan'anaviy usullari

(Til ta'limi asosida)

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani

1-son ixtisoslashgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Qarshiyev G'ayrat Toshpo'latovich

Bizga ma'lumki, ta'lim jarayoni uzoq muddatli, uzluksiz va nihoyatda murakkabdir. U talabadan ham, o'qituvchidan ham juda katta mas'uliyat talab qiladi. Ya'ni ta'lim jarayonining faol subyektlari o'qituvchi hamda talaba bo'lib ularning hamkorligidagi faoliyatlari orqali ma'lum darsni ham kuch va kam vaqt sarflagan holatda ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganmog'i lozim. Bu esa ta'lim samaradorligini ko'rsatib beradi. Samaradorligi o'qituvchi va talabaning faolligiga ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining ilmiy metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmi kishilarga bo'lgan ehtiyojga bog'liq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamalakatlarning, talabalarning o'quv va ijodiy faolliklarni oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarni tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimining zaruriy o'rinlarida qo'llash hamda interfaol usullarni dars jarayoniga tadbiiq qilish ishning asosiy vazifalaridan sanaladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilinayotgan metodlar darsning samaradorligini, o'quvchi-talabalarning faolligini belgilab beradi. Barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosatining ustivor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinib, uni uch bosqichda amalga oshirish rejalashtirildi va istiqloq yillarida bu rejalar izchillik bilan amalga oshirildi. Uzluksiz ta'limning butkul yangi, yagona tizimi hayotga tadbiiq etildi, ta'lim sohasida eskirgan qoloq ish uslublaridan voz kechildi, zamonaviy tipdagi yangi o'quv muassasalari barpo etildi. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" barkamol avlodning parloq kelajagini belgilab berdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o’qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o’rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko’tarishni davrning o’zi taqozo etmoqda”¹, – deya ta’kidlashlari ham bejiz emas. Shu fikrlarimizning dalili sifatida O’zbekiston Respublikasi 2017-2021-yillarga mo’ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da keltirilgan quyidagi fikrlarga alohida e’tibor qaratish lozim: “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o’quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish”².

Ushbu jarayonlardan oldimizga qo’yan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog’liqligi haqida fikr yuritish va shu asosda o’zbek tilini o’qitish usullarini ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Demokratik jamiyatning o’qitish jarayonidagi o’ziga xos tomoni, har bir insonni erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu borada talabalarning so’z boyligini oshirish, shu asosda ularning nutqini ko’rkam, jozibali, ta’sirchan qilish yo’llari yordamchi so’z turkumlarini, xususan, bog’lovchilarni o’tish jarayoni faktik materiallar yordamida asoslanadi. Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro’yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo’lga qo’yish uchun qo’shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

¹ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2016. В. 14.

² Ўзбекистон Республикаси 2017–2020-йилларга мўлжалланган “Харакатлар стратегияси”. Т. “Ўзбекистон” 2017-йил.

Shu bilan birga, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.³

Til ta‘limida o‘qitishni innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida ishlash davrning asosiy talabi, hayotning zaruriyati bo‘lib qolmoqda. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “innovation” – “yangilik kiritish⁴” degan ma‘noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsiyalarning ko‘rinishlari: yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan‘anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish uslublaridir⁵.

Ta‘lim innovatsiyalari ta‘lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar sanaladi. Ta‘lim innovatsiyalari “innovatsion ta‘lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta‘lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan. Ta‘lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: pedagogik jarayonda yoki ta‘lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.

1. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

2. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги ПҚ-4306-сон қарори.

⁴ Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: Фан ва технология. 2009. – Б.154.

⁵ Сайидахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – Б.56.

3. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur⁶.

Shunday qilib, innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Interfaol ta'limning eng muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

⁶ Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ, 2005.